The Journal of ECONOMICS and PEDAGOGY

JEP

Maqola turi (Maqola, Pedagogika fanlari, Adabiyotlar sharhi)

Etnopedagogik qadriyatlar vositasida o‘quvchi-yoshlarda milliy o‘zlikni anglashni shakllantirish va rivojlantirish metodikasi

Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich[1*]

[1] Andijon davlat universiteti; Andijon; O‘zbekiston; e-mail: muhammadiminabdullayev1988@gmail.com.
* Yozishmalar: e-mail: muhammadiminabdullayev1988@gmail.com; Tel.:+ 998937849280 (170100; Andijon viloyati, Andijon shahri, Universitet ko‘chasi, 129-uy; Andijon davlat universiteti; Psixologiya va pedagogika kafedrasi v.b.professori, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); Andijon; O‘zbekiston)

Abstrakt

Mazkur maqolada etnopedagogik qadriyatlar vositasida o‘quvchi-yoshlarda milliy o‘zlikni anglashni shakllantirish va rivojlantirish metodikasi yoritilgan. Tadqiqot jarayonida xalq pedagogikasi, folklor namunalari, milliy urf-odatlar va an’analarni ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, etnopedagogik qadriyatlardan foydalanish orqali o‘quvchilarda milliy g‘urur, tarixiy tafakkur, madaniy dunyoqarash, estetik did va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiluvchi vosita, usul va metodlar tizimi ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijasida umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilari uchun o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirishda etnopedagogik qadriyatlardan samarali foydalanishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: etnopedagogika, milliy o‘zlik, milliy qadriyatlar, xalq pedagogikasi, folklor, tarbiya, metodika, tarixiy tafakkur, vatanparvarlik, estetik did.

Type of the Paper (Article, Pedagogical Sciences, Review)

Methodology for forming and developing national self-awareness in young students through ethnopedagogical values

Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich[1*]

Academic Editor: Mirzayev Sarvarbek Avazbekovich

Received: 19.07.2026
Revised: 04.09.2026
Accepted: 22.10.2026
Published: 22.10.2026

Copyright: © 2026 by the authors. Submitted for possible open access publication under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY) license.

[1] Andijan State University, Andijan; Uzbekistan; e-mail: muhammadiminabdullayev1988@gmail.com.
* Correspondence: e-mail: muhammadiminabdullayev1988@gmail.com; Tel.:+ 998937849280 (17010029 Universitet Street, Andijan City, Andijan Region; Andijan State University; Acting Professor, Department of Psychology and Pedagogy; Andijan; Uzbekistan)

Abstract

This article examines the methodology of forming and developing students’ national identity through ethnopedagogical values. The study analyzes the pedagogical potential of using folk pedagogy, folklore samples, national traditions, and customs in the educational process. The system of tools, methods, and approaches aimed at developing stu-

dents' national pride, historical thinking, cultural worldview, aesthetic taste, and patriotism through ethnopedagogical values has been substantiated. Based on the research findings, methodological recommendations have been developed for secondary school teachers on the effective use of ethnopedagogical values in fostering students' national identity.

Keywords: ethnopedagogy, national identity, national values, folk pedagogy, folklore, education, methodology, historical thinking, patriotism, aesthetic taste.

1. Introduction

Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlodning milliy o'zligini anglash, tarixiy-madaniy merosga hurmat ruhida tarbiyalash, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularga sadoqat tuyg'usini shakllantirish ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o'quvchi-yoshlarda vatanparvarlik, xalqparvarlik, milliy an'ana va urf-odatlarga hurmat kabi fazilatlarni shakllantirishda etnopedagogik qadriyatlarning pedagogik imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqimiz tomonidan yaratilgan etnopedagogik meros — xalq og'zaki ijodi namunalari, dostonlar, ertaklar, rivoyatlar, afsonalar, xalq qo'shiqlari, urf-odatlar va an'analar yosh avlodning ma'naviy-madaniy dunyoqarashini rivojlantirishda katta tarbiyaviy imkoniyatlarga ega. Ushbu qadriyatlarni ta'lim jarayoniga tizimli ravishda tatbiq etish orqali o'quvchi-yoshlarda milliy o'zlikni anglash, tarixiy tafakkur va madaniy identifikatsiyani shakllantirish mumkin [1.54].

Bugungi kunda o'quvchi-yoshlarda milliy o'zlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqish, etnopedagogik qadriyatlardan foydalanishning samarali shakl, vosita va metodlarini aniqlash dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq pedagogikasi imkoniyatlaridan foydalanishga qaratilgan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda o'quvchi-yoshlarning tarixiy-madaniy dunyoqarashini kengaytirish, milliy qadriyatlarga hurmatini oshirish, xalq an'analari va urf-odatlarini yoshlar ongiga singdirishning pedagogik asoslari tadqiq etilgan [2.140]. Shu nuqtai nazardan, etnopedagogik qadriyatlardan foydalanish asosida o'quvchi-yoshlarda milliy o'zlikni anglashni shakllantirish va rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

2. Materials and Methods

Mazkur tadqiqotda o'quvchi-yoshlarda milliy o'zlikni anglashni shakllantirish va rivojlantirishda etnopedagogik qadriyatlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash maqsadida nazariy va amaliy tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asosini xalq pedagogikasi, etnopedagogika, milliy tarbiya nazariyasi hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida tarixiylik, tizimlilik, uzviylik va shaxsga yo'naltirilganlik tamoyillariga asoslanildi.

Tadqiqot materiallari sifatida o'zbek xalqining boy etnopedagogik merosi, jumladan, xalq og'zaki ijodi namunalari (ertaklar, dostonlar, rivoyatlar, afsonalar, maqollar, matallar va xalq qo'shiqlari), milliy urf-odatlar, an'analar hamda umumiy o'rta ta'lim maktablarida olib boriladigan tarbiyaviy jarayonlar mazmuni o'rganildi.

Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- ilmiy-nazariy tahlil metodi — etnopedagogika, milliy tarbiya va o'quvchilarda milliy o'zlikni shakllantirish masalalariga oid ilmiy manbalarni o'rganish va tahlil qilishda;

- qiyosiy tahlil metodi — xalq pedagogikasi namunalarining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlashda;

- pedagogik kuzatish metodi — ta'lim jarayonida etnopedagogik vositalardan foydalanish samaradorligini o'rganishda;

- umumlashtirish metodi — olingan ilmiy natijalarni tizimlashtirish va metodik tavsiyalar ishlab chiqishda;

- pedagogik modellashtirish metodi — o'quvchilarda milliy o'zlikni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik tizimni ishlab chiqishda.

Tadqiqotning nazariy asoslarini shakllantirishda o'zbek pedagogika fanining rivojiga munosib hissa qo'shgan olimlarning ilmiy ishlari o'rganildi. Jumladan, V.Y. Zohidov, A. Zunnunov, N.M. Mallayev, N.R. Masharipova, U.Q. Maqsudov, O. Musurmonova, D. Muqimova, I.N. Mo'minov, S. Nishonova, N. Ortiqov, A. Rustamov, M. Salayeva, O. Safarova, R.G Safarova, M.M. Xayrullayev, O. Hasanboyeva, Sh.M. Shomuhamedov, T.A. Egamberdiyeva, D. Qosimova, Z.K. Qurbonniyozova, M.E. Abdullayev, hamda M. Quronovlarning [3.6] ilmiy tadqiqotlari tahlil qilindi. Mazkur tadqiqotlarda xalq pedagogikasi imkoniyatlaridan foydalanish, milliy qadriyatlar asosida shaxs tarbiyasini tashkil etish, o'quvchi-yoshlarda milliy o'zlikni anglash va ma'naviy fazilatlarni rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasining asosiy yo'nalishi etnopedagogik qadriyatlarni ta'lim jarayoniga maqsadli va tizimli ravishda tatbiq etish orqali o'quvchi-yoshlarda milliy o'zlikni, tarixiy tafakkur, madaniy dunyoqarash va ma'naviy barqarorlikni rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat bo'ldi.

3. Results

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, etnopedagogik qadriyatlar o'quvchi-yoshlarda milliy o'zlikni anglashni shakllantirish va rivojlantirishning samarali pedagogik vositalaridan biri hisoblanadi. Etnopedagogika namunalari, xususan, folklor asarlari, milliy urf-odatlar, an'analar va xalq ijodiyoti namunalaridan foydalanish o'quvchi-yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini boyitish, tarixiy tafakkurini rivojlantirish hamda milliy qadriyatlarga ijobiy munosabatini shakllantirish imkonini beradi [4.72]. Tadqiqot jarayonida o'quvchi-yoshlarda milliy o'zlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi etnopdagogik vositalar tizimlashtirildi. Ushbu vositalardan samarali foydalanishda quyidagi yo'nalishlarga ustuvor ahamiyat qaratish zarurligi aniqlandi:

- o'quvchilarda folklor namunalarini o'rganishga bo'lgan qiziqish va motivatsiyani shakllantirish;

- xalq og'zaki ijodi namunalari orqali o'zbek xalqining tarixiy-madaniy merosi bilan tanishtirish;

- ajdodlarning hayot tarzi, dunyoqarashi va ma'naviy qadriyatlarini o'rganish asosida tarixiy tafakkurni rivojlantirish;

- etnopedagogik qadriyatlar yordamida o'quvchi-yoshlarning estetik didi, axloqiy qarashlari va madaniy dunyoqarashini shakllantirish.

Tadqiqot natijasida o'quvchilarda milliy o'zlikni shakllantirish jarayonida folklor namunalaridan foydalanishning quyidagi metodik imkoniyatlari aniqlandi:

1. Folklor namunalarini tizimli o'rganish - o'quvchi-yoshlarni ertaklar, dostonlar, rivoyatlar, afsonalar va xalq qo'shiqlari bilan muntazam tanishtirish orqali ularda milliy qadriyatlarga hurmat va qiziqish shakllantiriladi.

2. Xalq og'zaki ijodi namunalarining tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish - ertak va dostonlardagi qahramonlarning xatti-harakatlarini tahlil qilish orqali o'quvchi-yoshlarda yaxshilik va yomonlikni farqlash, qahramonlik, jasorat, vatanparvarlik kabi fazilatlarni anglash ko'nikmalari rivojlantiriladi.

3. Folklor asarlarining mazmunini tahlil qilish koʻnikmasini shakllantirish - Oʻquvchi-yoshlar xalq qoʻshiqlari, dostonlar va rivoyatlarning mazmunini tushuntirish, ularda ifodalangan asosiy gʻoyalarni aniqlash, ijobiy va salbiy obrazlarni baholash hamda oʻz munosabatini bildirish imkoniyatiga ega boʻladilar.

4. Qahramonlik obrazlari orqali milliy oʻzlikni rivojlantirish - "Alpomish", "Goʻroʻgʻli" kabi xalq dostonlari hamda tarixiy shaxslar haqidagi rivoyatlar asosida oʻquvchi-yoshlarda ajdodlar merosiga hurmat, milliy faxr va vatanparvarlik tuygʻulari shakllantiriladi.

5. Xalq qoʻshiqlarining estetik va tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish- xalq qoʻshiqlari oʻquvchi-yoshlarning estetik didini rivojlantirish, hissiy dunyosini boyitish va milliy madaniyatga daxldorlik tuygʻusini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, etnopedagogik qadriyatlarni faqat dars jarayonida emas, balki sinfdan tashqari faoliyatlarda ham qoʻllash yuqori samaradorlik beradi. Jumladan, folklor festivallari, dostonxonlik kechalari, baxshichilik tanlovlari, milliy bayramlar, xalq oʻyinlari, muzeylarga sayohatlar va ijodiy tadbirlar oʻquvchilarning milliy qadriyatlarga boʻlgan qiziqishini oshiradi.

4. Discussion

Tadqiqotda quydagi natijalar va muhokama erishildi. Etnopedagogik qadriyatlardan ta'lim-tarbiya jarayonida tizimli foydalanish oʻquvchi-yoshlarda milliy oʻzlikni anglash, tarixiy xotira, ma'naviy qadriyatlarga hurmat va vatanparvarlik tuygʻularini shakllantirishda muhim pedagogik imkoniyatlarga ega. Xalq tomonidan yaratilgan ma'naviy meros namunalarining tarbiyaviy salohiyatidan foydalanish oʻquvchi-yoshlarning nafaqat bilimlarini kengaytiradi, balki ularning shaxsiy sifatlari, dunyoqarashi va ijtimoiy faolligini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Etnopedagogik qadriyatlarni asosi xisoblangan folklor namunalari [5.6] oʻquvchi-yoshlarning milliy identifikatsiyasini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki xalq ogʻzaki ijodi namunalarida xalqning tarixiy tajribasi, turmush tarzi, axloqiy qarashlari, orzu-intilishlari va ma'naviy qadriyatlari mujassamlashgan. Shu sababli ertak, doston, rivoyat va xalq qoʻshiqlarini pedagogik jarayonda qoʻllash orqali oʻquvchi-yoshlarda ajdodlar merosiga nisbatan hissiy-qadriyatli munosabat shakllanadi.

Etnopedagogik qadriyatlarni oʻquvchi-yoshlarga taqdim etishda faqatgina nazariy ma'lumot berish yetarli emas. Mazkur jarayon samaradorligini oshirish uchun interfaol metodlar, sahnalashtirish, rolli oʻyinlar, bahs-munozaralar, ijodiy loyihalar va multimedia vositalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuv oʻquvchilarning faol ishtirokini ta'minlab, ularning oʻrganilayotgan materialni chuqurroq anglashiga yordam beradi.

Etnopedagogik qadriyatlarning muhim jihatlaridan biri shundaki, ular sinkretik xususiyatga ega boʻlib, oʻzida badiiy, axloqiy, estetik va tarbiyaviy mazmunni birlashtiradi [6.45]. Shu bois folklor namunalarini oʻrganish jarayonida oʻquvchilar nafaqat muayyan asar mazmunini oʻzlashtiradilar, balki xalqning dunyoqarashi, tarixiy hayoti va madaniy tajribasi bilan ham tanishadilar.

Ota-onalar bilan hamkorlik asosida tashkil etiladigan tadbirlar ham oʻquvchi-yoshlarda milliy oʻzlikni shakllantirish jarayonini kuchaytiradi [7.215]. Milliy bayramlarni nishonlash, oilaviy an'analarni oʻrganish, xalq urf-odatlari bilan bogʻliq suhbatlar tashkil etish orqali maktab va oila tarbiyaviy ta'sirining uzviyligi ta'minlanadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari etnopedagogik qadriyatlar zamonaviy ta'lim jarayonida oʻquvchi-yoshlarning milliy oʻzligini shakllantirishning samarali vositasi ekanligini koʻrsatdi. Ushbu yondashuv yosh avlodda milliy gʻurur, tarixiy xotira, ma'naviy barqarorlik va madaniy merosga hurmat tuygʻularini rivojlantirish imkonini beradi.

5. Conclusions

Tadqiqot natijalari asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, etnopedagogik qadriyatlar o‘quvchi-yoshlarda milliy o‘zlikni anglashni shakllantirish va rivojlantirishning muhim pedagogik vositalaridan biridir. Xalq pedagogikasi namunalaridan, xususan, folklor asarlari, milliy urf-odatlar, an’analar va madaniy meros namunalaridan ta’lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish yoshlarning tarixiy tafakkuri, milliy g‘ururi va ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirish imkonini beradi.

Tadqiqot jarayonida etnopedagogik qadriyatlarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning samarali vosita, usul va metodlari aniqlandi. Jumladan, xalq ertaklari, dostonlar, rivoyatlar, xalq qo‘shiqlari, milliy o‘yinlar va an’anaviy tadbirlardan foydalanish orqali o‘quvchilarda ajdodlar merosiga hurmat, vatanparvarlik, axloqiy fazilatlar va estetik qarashlarni shakllantirish mumkinligi asoslandi. Shuningdek, o‘quvchi-yoshlarda milliy o‘zlikni shakllantirish jarayoni faqatgina dars mashg‘ulotlari bilan chegaralanmasligi, balki sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar, ijodiy mashg‘ulotlar, folklor festivallari, dostonxonlik kechalari, muzeylarga sayohatlar hamda ota-onalar bilan hamkorlikdagi faoliyatlar orqali uzluksiz davom ettirilishi lozimligi aniqlandi.

Bugungi globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirish, tarixiy xotirani mustahkamlash va milliy o‘zlikni rivojlantirish ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, etnopedagogik qadriyatlar o‘quvchi-yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash, ularning ma’naviy dunyosini boyitish va barkamol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik omil hisoblanadi.

References

[1] M.E. Abdullayev “Etnopedagogik qadriyatlar vositasida o‘quvchilarda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish tizimi” p.f.b.f.d. (PhD) dissertatsiyasi. Farg‘ona. 2022-yil. –B.54.

[2] J. Hasanboyev va boshq. Pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2011. – B.140.

[3] M.E. Abdullayev “Etnopedagogik qadriyatlar vositasida o‘quvchilarda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish tizimi” p.f.b.f.d. (PhD) dissertatsiya avtoreferati. Farg‘ona. 2022-yil. –B.6.

[4] O.Musurmonova. Oila ma’naviyati – milliy g‘urur. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999.

[5] – B.72.

[6] M. Quronov. Milliy tarbiya va yoshlar. – Toshkent: Kamalak, 2016. –B. 6.

[7] R.Hasanov, X.To‘raqulov. Etnopedagogika asoslari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. — B.45.

[8] R. Mavlonova, O.To‘rayeva, K. Holiqberdiyev. Pedagogika. — Toshkent: O‘qituvchi, 2001. — B. 215.

Disclaimer/Publisher’s Note: The statements, opinions and data contained in all publications are solely those of the individual author(s) and contributor(s) and not of JEP and/or the editor(s). JEP (The Journal of Economics and Pedagogy) and/or the editor(s) disclaim responsibility for any injury to people or property resulting from any ideas, methods, instructions or products referred to in the content.

Nashriyot qaydi: Ushbu jurnalda chop etilgan barcha materiallarda bayon qilingan fikrlar, qarashlar va ma’lumotlar faqat muallif(lar) va materialni taqdim etgan shaxs(lar)ga tegishli bo‘lib, jurnal tahririyati yoki muharrir(lar)ning rasmiy nuqtai nazarini ifoda etmaydi. JEP (The Journal of Economics and Pedagogy) hamda uning muharrir(lari) mazkur nashrda keltirilgan g‘oyalar, usullar, ko‘rsatmalar yoki mahsulotlardan foydalanish natijasida insonlar yoki mol-mulkka yetkazilgan har qanday zarar uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi.

Izoh: Maqola infojournal@uniep.uz pochtasi orqali qabul qilingan va nashr etilgan.

Note: The article was received via the email address infojournal@uniep.uz and published.